O‘ZBEK TILINI BILISH DARAJASI UNING DEKOLONIZATSIYASIGA QANCHALIK BOG‘LIQ EKANLIGINI O‘RGANISH

Tilyabayev K.Z.

Toshkentda Xalqaro Vestminster universiteti, Ta’lim va ijtimoiy adolat bo‘yicha falsafa doktori, katta o‘qituvchi

Email: k.tilyabaev@wiut.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek tilini o‘rganish va dekolonizatsiya qilish o‘rtasidagi bog‘liqlik ko‘rib chiqilib, o‘zbekcha bilish darajasi kabi omilga e’tibor qaratiladi. Dekolonizatsiya va unga xos his-tuyg'ularni shakllantirish uchun o‘zbekcha bilish darajasi yetarli shart bo ‘lmasa ham, juda ham muhim ekanligi ko'rsatilgan.

Kalit so ‘zlar: o‘zbek tili o‘rganislishi, dekolonizatsiya, his-tuyg‘ular, o‘zbekcha bilish darajasi

Аннотация. В данной статье рассматривается взаимосвязь между изучением узбекского языка и деколонизацией, с акцентом на таком факторе, как уровень владения узбекским языком. Показано, что уровень владения узбекским языком является необходимым, хотя и недостаточным, условием деколонизации и формирования связанных с ней чувств.

Ключевые слова: изучение узбекского языка, деколонизация, эмоции, национальность, уровень владения узбекским языком

Abstract. This article examines the relationship between Uzbek language learning and decolonization, focusing on Uzbek language proficiency. It demonstrates that Uzbek language proficiency is a necessary, albeit insufficient, condition for decolonization and the development of related emotions.

Keywords: Uzbek language learning, decolonization, emotions, Uzbek proficiency

KIRISH

Dekolonizatsiya deganda ko‘pincha mustamlakachilikdan voz kechib mustaqillikka erishish tushuniladi, ammo mustaqil holatda ham yashirin davomiy mustamlakachilik kuzatilishi keng tarqalgan holdir. Bu ozodlikka erishgan millatning sobiq mustamlakachiga ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, xususan lisoniy jihatdan bog‘liq bo‘lishida ko‘rish mumkin. Til dekolonizatsiyasi esa sobiq mustamlakachining tiliga nafaqat grafik, grammatik, leksik, uslubiy yoki imloviy jihatdan qaramligini yo‘qotish, balki uning mantig‘idan, boshqa tillarning rivojini, ulardan foydalanish doirasini chegaralab qo‘yishdan voz kechish demakdir. Til dekolonizatsiyasi ko‘pincha kam sonli millat va ellatlar tillari, o‘layotgan yoki yo‘qolish xavfi bor, shuningdek yozma tarixga ega bo‘lmagan, standartlanmagan

ISSN 3030-3907

yoki ta’lim tili maqomiga ega bo‘lmagan tillarga nisbatan ishlatiladi. Mamlakatimizning davlat tili bo‘lmish o‘zbek tili yuqorida aytilgan biron bir ta’rifga to‘g‘ri kelmaydi, shuning uchun uning dekolonizatsiyasini ko‘rib chiqish va til o‘rganishdagi hissiy tajribalarga bog‘lash nafaqat O‘zbekiston uchun balki global miqyosda ham dolzarb hisoblanadi [1].

ADABIYOTLAR TAHLILI

Tilyabaev [1] his-tuyg‘ular, xususan noqulay ustunlik hissi til o‘rganilishi va dekolonizatsiyasi o‘rtasida kesishma nuqtasi bo‘lishi mumkinligi namoyish etdi, bu esa o‘zbek tilining o‘rganilishiga uning dekolonizatsiyasini bog‘lashga yordam beradi. O‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘rganish tajribalarida aniqlangan his-tuyg‘ulardan faqat uyat/sharmandalik va aybdorlik noqulay ustunlik hissiga misol bo‘la oladi [2]. Shuni yodda tutgan holda, ushbu maqola o‘zbek tilining dekolonizatsiyasiga hissa qo‘shishi yoki to‘sqinlik qilishi mumkin bo‘lgan aybdorlik va uyatga/sharmandalikka ta’sir qiluvchi omillarni aniqlashga qaratilgan. O‘zbek tilini ikkinchi til sifatida uzoq muddatda rasmiy va norasmiy ravishda o‘rganayotganlarning dekolonial tafakkurni rivojlantirishda muvaffaqiyat qozona olmaganliklariga alohida e’tibor qaratiladi. Umid qilamanki, bunday fikrlash rivojlanishiga yordam beruvchi yoki to‘sqinlik qiluvchi omillarni hisobga olish O‘zbekistonda o‘zbek tilini o‘qitishga dekolonial tamoyillarni joriy etishga yordam beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ma’lumotlar o‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘rgangan va/yoki o‘rganishda davom etayotgan 20-40 yoshdagi 25 ta O‘zbekiston fuqarosi hamda o ‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘rgatayotgan o‘qituvchilar bilan individual suhbatlar orqali to‘plangan. Olingan ma’lumotlardan tadqiqot maqsadlarida foydalanish, ularning xavfsizligi, maxfiyligi va manbalarini taxalluslash BERA [3] axloqiy me’yorlariga muvofiq ta’minlandi. Olingan ma’lumotlar narrativ tahlil usuli yordamida qayta ishlangan [4] va to‘rtta narrativ-hikoya shaklida muallifning doktorlik dissertatsiyasida keltirilgan. Ushbu maqolada "O‘zbek tilini bilish darajasi uning dekolonizatsiyasiga bog‘liqligi" deb nomlangan faqat bitta narrativ-hikoya taqdim etiladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ushbu maqolada o‘zbekcha bilish darajasi o‘zbek tilining dekolonizatsiyasiga qay darajada bog‘liq ekanligi haqida fikr yuritiladi. Buning uchun avvalo ushbu bog‘liqlikning umumiy ko‘rinishi ta’riflanib, o‘zbekcha bilish darajasini baholash hamda unga bog‘liq kamchiliklar yashirin mustamlaka holatining ko‘rsatkichlari sifatida ko‘rib chiqiladi. Shundan so‘ng, nima uchun

ISSN 3030-3907

o‘zbek tilini erkin bilish o‘zbek tilining dekolonizatsiyasiga olib kelmasligi ko‘rsatiladi.

Porto va Zembylas [5] hamda Nussbaum [6] tomonidan taklif qilinganidek, ikkinchi til bilish darajasi ushbu tilga nisbatan dekolonial fikrlashni rivojlantirish uchun ancha yaxshi bo‘lishi kerak. O‘zbek tilini mukammal bilmasliklari uchun uyaltirilganlarning aksariyati o‘zbek tiliga rus ta’siri borligida mustamlaka holatini ko‘rmadilar. Masalan,

Tadqiqotchi:

Sizningcha, rus tili o‘zbek tilini o‘rganishingizga to‘sqinlik qildimi?

Sarvar:

Yo‘q. O‘zbek tilini qabul qilish yoki qilmaslik – odamning yuragidan chiqqan qarori. Bundan tashqari, rus tili insonga nemis, ispan yoki ingliz tillarini o‘rganishga to‘sqinlik qilmayapti-ku. Nima uchun rus tili o‘zbek tilini o‘rganishga to‘sqinlik qilishi kerak? Menimcha, bu shunchaki odamning tilga bo‘lgan munosabati.

Tadqiqotchi:

Sovet davrida o‘zbek tili rus tili kabi keng tarqalmaganligi va mamlakatimizda hali ham uni o‘rganmaydigan odamlar borligi sababli rus tilining o‘zbek tiliga ta’sirini mustamlaka holati deb hisoblaysizmi?

Sarvar

Yo‘q. Mening ota-onam va qaynota-qaynonam ruscha yaxshi bilishadi va bolaligidanoq o‘zbekcha gaplashib kelishadi. Men ulardan buning mustamlakalik bilan biron bir aloqasi borligini eshitmaganman. Bu gap sotishdan boshqa hech narsa emas. Aqlli odamlar o‘z fikrlarini yaxshiroq ifoda etish uchun til tanlashlari mumkin. Buning nimasi noto‘g‘ri?

Aksincha, dekolonial pozitsiyaga ega bo‘lgan, O‘zbekistondagi o‘zbek tiliga nisbatan hozirgi munosabatni tanqid qiluvchi suhbatdoshlarim o‘zbekcha yaxshi biladilar. Bu tanqidiylik quyidagi dialogdan ko‘rinib turibdi:

Tadqiqotchi:

Sizningcha, o‘zbekzabon o‘zbeklar o‘zbek tilining dekolonizatsiyasi masalasida birdamlikni namoyon qilishadimi?

Bahodir:

Yo‘q. Ko‘pchilik o‘zbek tiliga bepisand munosabatda bo‘lishadi, faqat o‘zbekcha bilishni qoloqlik ko‘rsatkichi deb hisoblaydi. O‘zbekistonga Rossiyadan kelgan talabalar o‘zbek tilini o‘rganishga urinmaydilar, chunki titul millat vakillari o‘z tiliga bepisand munosabatda bo‘lishlarini ko‘rishadi. Men shuningdek, ona tilini qo‘llab-quvvatlaydigan, o‘zlarini millatparvar deb hisoblaydigan ko‘plab odamlarni bilaman, ammo ularning barcha farzandlari va nevaralari rus

ISSN 3030-3907

maktablarida o‘qiydilar. Toshkentdagi istalgan mahallaga borib so‘rasangiz, hamma sizga farzandlari rus yoki ingliz tilini repetitor bilan o‘rganishini aytadi. O‘zbek tili haqida ular hech narsa deyishmaydi. Ular rus va ingliz tillari maqom va obro‘ berishiga ishonishadi. O‘zbek tili ularga bunday maqom, obro‘ bermaydi.

Bundan tashqari, o‘zbekcha bilish darajasi barcha suhbatdoshlarim tomonidan o‘zicha baholangan, chunki uning standart tizimi yo‘q [7]. Bu esa o‘zbek tilini qoloqlik bilan bog‘lashga yordam beradi va uning mustamlaka holatini kuchaytiradi [8]. Suhbatdoshlarimning ko‘pchiligi buni o‘zbek tili ko‘nikmalarini takomillashtirish yo‘lida jiddiy to‘siq deb biladi. Masalan,

O‘zbek tilini bilish darajasini baholash vositalari mavjud emas. Hech kim qancha va nima uchun o‘rganish kerakligini bilmaydi. Ingliz va boshqa tillarda bunday darajalar bor va har biri uchun o‘ziga xos mezonlar mavjud. Bizda esa bu narsa yo‘q. (Vladislav)

Bunday vaziyat odamlarni o‘zbek tili ko‘nikmalarini yaxshilashga undamasligini hisobga olsak, bu Porto va Zembylas [5] hamda Nussbaum [6] mantig‘iga ko‘ra, dekolonial fikrni rivojlantirmaydi. Bundan tashqari, bugun o‘zbek tili berayotgan imkoniyatlar kamligi o‘zbek tilini egallashni istaganlarga ko‘p narsa va’da bera olmaydi, buni quyidagi suhbatdan ko‘rish mumkin:

Tadqiqotchi:

Oilangizning kelgusi avlodlari o‘zbekcha gapiradimi?

Nina:

Ishonchim komilki, o‘g‘lim o‘zbekcha gapirmaydi. O‘ylaymanki, u ota-onasi singari o‘zbek tilisiz bu yerda omon qolish uchun yetarli imkoniyatlar, muhit yoki boshqa narsalarga ega bo‘ladi. Yoki ketishga majbur bo‘ladi. Men uni ongli ravishda darslikni ochib, o‘zbek tilini o‘rganayotganini ko‘rmayapman. Agar shunday kun kelsa, u dunyoni ko‘rish imkoniyatini beradigan boshqa til tanlaydi. "Ona, men o‘zbek tilini o‘rganaman," desa ham, u bilan qayerga boradi?

Bundan tashqari, suhbatdoshlarim orasida o‘zbekcha yaxshi biladiganlar ham bor edi, ammo ular dekolonial tafakkurni ko‘rsatishmadi. Bu ularning kelib chiqishini yashirish uchun rus tilidan tez-tez foydalana boshlaganliklaridan bilsa bo‘ladi. Masalan,

Hojimat:

Ko‘proq ruscha gapirishimning yana bir sababi bor. Men Samarqand viloyatidanman. O‘ziga xos shevamiz bor. Toshkentga o‘qigani keldim. Toshkent shevasi biznikidan juda farq qiladi. Odamning gapidan u qayerdan kelganligini bilib olish mumkin. Ba’zan shu narsa insonga munosabatni o‘zgartiradi.

Tadqiqotchi:

ISSN 3030-3907

Shevangiz sababli Toshkentda o‘zingizga nisbatan salbiy munosabat ko‘rganmisiz?

Hojimat:

Ha, ba’zan. Viloyatdan kelgan mehmon deb qabul qilinmaslik uchun Toshkentda ko‘proq rus tilida gapirishim kerak edi.

Bu tajriba shuni ko‘rsatadiki, Toshkent o‘zbeklari o‘ziga xos shevalarida gaplashuvchi viloyatlardagi yurtdoshlariga ko‘pincha yomon munosabatda bo‘lishadi. Til kamsitilishiga [9] duchor bo‘lmaslik uchun, ya’ni viloyatlardan kelgan musofir yoki mehmon sifatida qabul qilinmaslik uchun ular o‘zbekcha emas, balki ruscha gaplashadilar [10], bu esa o‘zbek tili obro‘siga putur etkazadi. Toshkent maktablarining birida tarix fanidan dars bergan Bahodir ham bu haqiqatni tasdiqladi.

O‘tgan yili men xususiy maktabda ishlaganman. Mening sinfimda faqat o‘zbeklar bor edi. Ularning aksariyati viloyatlarimizdan. Ular o‘z shevalaridan uyalishadi, lekin toshkentchasiga gaplashmaydilar. Boshqalar bilan muloqot qilganda ular rus yoki ingliz tillariga o‘tadilar. O‘zlarining tor doirasida ular uyatchan emaslar [o‘z shevasida gapirishadi], lekin kengroq auditoriyada ular o‘z mintaqaviy kelib chiqishlarini yashiradilar. Ular o‘z tilidan uyalishadi, bu dekolonial fikrdan ko‘ra mustamlaka holatiga ko‘proq o‘xshaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Zembylasning [11] nazariy qarashlariga binoan, dekolonizatsiya quyidagi bosqichlar: 1) noqulay ustunlikni his etish; 2) dekolonial birdamlikni his etish va 3) birinchi va ikkinchi tuyg‘ularni doimiy ravishda rivojlantirish orqali amalga oshishi mumkin. Shu nazariyadan foydalanib, aytish mumkinki, o‘zbekcha bilishning noaniq istiqbollari tufayli o‘zbek tilini o‘rganayotgan tadqiqot ishtirokchilarining aksariyati birinchi bosqichdan muvaffaqiyatli o‘ta olmay qolyapti. Yuqorida aytib o‘tilgan uyat/sharmandalik, o‘zbekcha yaxshi bilmaslikdan yoki shevada gapirishdan bo‘ladimi, noqulaydir, ammo u shaxsiyatga tahdid solgani sababli, "qochish yoki himoya qilish istagi"ni [12; 13-b] dekolonial birdamlikdan ustun qo‘yadiganga o‘xshaydi. Yuqorida aytib o‘tilganlarning barchasi shuni ko‘rsatadiki, bu omil o‘zbek tili dekolonizatsiyasiga yordam berishi dargumon. Bu faqat til kamsitilishini va mustamlaka holatini kuchaytiradi [8]. Demak, o‘zbekcha yaxshi bilish muhim, ammo o‘zbek tilining dekolonizatsiyasi uchun yetarli shart emas.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Tilyabaev, K., 2024. *Exploring the emotional dimension of Uzbek language decolonisation: insights from the experiences of learning Uzbek as a second language.* Lancaster University.

ISSN 3030-3907

2. Zembylas, M., 2018. Con-/divergences between postcolonial and critical peace education: Towards pedagogies of decolonization in peace education. *Journal of Peace Education*, *15*(1), pp.1-23.
3. 2018. BERA Ethical Guidelines for Educational Research. 4th ed. [ebook] London: BERA, Available at: <https://www.bera.ac.uk/publication/ethical-guidelines-for-educational-research-2018-online> [Accessed 21 February 2021].
4. Smith, B., 2016. Narrative analysis. *Analysing qualitative data in psychology*, *2*, pp.202-221.
5. Porto, M. and Zembylas, M., 2020. Pedagogies of discomfort in foreign language education: cultivating empathy and solidarity using art and literature. *Language and Intercultural Communication*, *20*(4), pp.356-374.
6. Nussbaum, M. C., 2010. *Not for profit: Why democracy needs the humanities*. Princeton University Press.
7. Gafforov, I. and Kosimov, A., 2022, September. Language environment, language ideology and prejudice in Uzbekistan. In *International Scientific and Practical Conference "The Time of Scientific Progress"* (Vol. 1, No. 1, pp. 82-86).
8. Roche, G., 2019. Linguistic injustice, decolonization, and language endangerment. *Foundation for Endangered Languages XXIII Causes of language endangerment: Looking for answers and finding solutions to the global decline in linguistic diversity*.
9. Birch, B., 1998. Language Ideologies, Prejudice and Planning. Mid-America Linguistics Conference, pp. 231-237.
10. Turaeva-Hoehne, R., 2014. Linguistic and Social Contradictions within Uzbek National Identity. *Historiography and Nation-Building among Turkic Populations*, pp.111-128.
11. Zembylas, M., 2022. Toward affective decolonization: Nurturing decolonizing solidarity in higher education. *Journal of Curriculum and Pedagogy*, pp.1-20.
12. Teimouri, Y., 2019. *Exploring the Links between Second Language Learners' Proneness to Shame and Proneness to Guilt and their Language Learning Motivation and Achievement*. Georgetown University.

ISSN 3030-3907